



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA
TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASH KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

Ortiqova Nargiza Akramovna

s.f.b.f.d (PhD)

Qo'qon davlat universiteti dotsenti

ortiqova1101@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonini takomillashtirishda kreativ yondashuvning ahamiyati va uning ta'lim sifatiga ta'siri chuqur tahlil etilgan. XXI asr talablari ta'lim tizimidan faqat bilim berishni emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni innovatsion yondashuv orqali hal qila olishi kabi ko'nikmalarni shakllantirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, maqolada kreativlik tushunchasi, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va ta'sir mexanizmlari asoslab berilgan. Maqolada muallif kreativ pedagogika tamoyillari, o'quvchilarni rag'batlantirish va motivatsiyani oshirish usullari, shuningdek, o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirishda kreativ yondashuvdan qanday foydalanish mumkinligi haqida aniq misollar va tajribalarga asoslangan fikrlarni keltiradi. Ta'limdagi an'anaviy va kreativ metodlar solishtirilib, kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi qanday ortishini ko'rsatuvchi amaliy tajribalar yoritiladi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalar, loyiha asosida o'qitish, interfaol metodlar kabi innovatsion yondashuvlarning kreativ ta'limni rivojlantirishdagi roli haqida ham so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *kreativlik, individual yondashuv, zamonaviy texnologiya, tarbiya, ta'lim.*

Kreativ yondashuv — bu ta'lim jarayonini shunchaki ma'lumot yetkazish emas, balki o'quvchini o'ylashga, izlanishga, yangilik yaratishga undaydigan faol, interaktiv va yangicha metodlarga asoslanadi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilarning nafaqat bilim saviyasi, balki hayotiy ko'nikmalari, tanqidiy fikrlashi va muammoni hal qilish qobiliyati ham rivojlanadi. O'quv muhitini erkin va ilhomlantiruvchi qilish ham buna misol bo'ladi. Kreativlik uchun eng avvalo erkin va do'stona muhit zarur. O'qituvchi o'quvchilarga yangi g'oyalar bildirish, fikr aytish va xato qilish huquqini berishi kerak. Qo'llab-quvvatlovchi muhit o'quvchilarda ishonch hissini uyg'otadi va ular o'zini erkin ifoda eta boshlaydi. Darslarda interfaol va ijodiy metodlarni qo'llash ham samara beradi. Ta'limga kreativ yondashuv quyidagi metodlar orqali amalga oshiriladi: Aqliy hujum ya'ni, brainstorming: Yangi g'oyalarni tez va cheklovsiz ilgari surish orqali muammoni turli nuqtai nazardan ko'rishga yordam beradi. Rol o'ynash (role play): Turli ijtimoiy rollarni ijro etish orqali o'quvchi real hayotga yaqin sharoitda o'rganadi. Debatlar va munozaralar: O'quvchilarni mantiqiy fikrlash, dalillash va qarama-qarshi fikrlarni hurmat qilishga o'rgatadi. Krossvordlar, testlar, viktorinalar: O'yinlar orqali o'qitish bilimlarni



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



mustahkamlashda va zavqli o'rganishda muhim vosita bo'ladi. Raqamli texnologiyalar ta'limni kreativlashtirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Misol uchun, bu vositalar o'quvchilarni jalb qiladi, ularning diqqatini oshiradi va o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi. O'quvchilarga biror real muammo berib, uni tahlil qilish, tadqiqot o'tkazish va yechim taklif qilishni so'rash — ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Loyihaviy o'qitish ularni mustaqil qaror qabul qilish, guruhda ishlash, vaqtni boshqarish kabi muhim ko'nikmalarga o'rgatadi. Bir nechta fanlarni uyg'unlashtirish orqali darslarni kontekstual va hayotga yaqinlashtirish mumkin. Masalan, biologiya va informatika, tarix va san'at, matematika va musiqa fanlarining integratsiyasi orqali yangi ko'nikmalar shakllanadi. Vizual san'at chizish, dizayn, grafikalar yaratish. Bu faoliyatlar orqali o'quvchilar o'zini yanada yaxshiroq tanib boradi va shaxsiy salohiyatini yuzaga chiqaradi. O'qituvchining o'zi kreativ fikrlaydigan, yangilikka ochiq, izlanadigan bo'lsa, bu o'quvchilarga ham o'tadi. Darslar turlicha, qiziqarli, kutilmagan yondashuvlar bilan boyitilsa, ta'lim samarador bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta'minlashda moddiy omillar o'rinda ta'lim muasasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishni takomillashtirish darajasi, salohiyati ham zarur. Talabalar mustaqil ishi mexanizmlarini takomillashtirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda oliy ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020-yil 23-sentabrda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim, to'g'risida" gi PQ 637-sonli qonunida ham ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarning turli shakllarda ta'lim olishi ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish ya'ni kunduzgi; ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish masofaviy, sirtqi, kechki; dual ta'lim; oilada ta'lim olish va mustaqil ishi; kata yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish; inklyuziv ta'lim; eksternat tartibidagi ta'lim; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasidagi kadrlarni tayyorlash belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, yuqoridagilarni inobatga olib mustaqil ta'limni tashkil etishni takomillashtirish, mustaqil o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi. Darhaqiqat, jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim-tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakl, metod va vositalari, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta'sirini tahlil etganda, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvga bo'lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanishini aniqladik: Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'lim tizimi, metodologiyasi va o'quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining faoliyati pedagogik yangiliklar yaratish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini egallashdan iborat. Bu esa, o'z -o'zidan bo'lajak pedagoqlarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish o'qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya'ni ta'limga innovatsiyalar kiritishni taqozo qiladi. Ta'lim jarayoniga



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



innovatsiyalar kiritishning muhim shartlaridan biri esa, o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi, ijodkorligi va kreativ faolligi bilan tavsiflanadi.

Uchinchidan, pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq etishga nisbatan bo'lajak o'qituvchilarda faol mayllarni rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv asosida talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi. "Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi". Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq: "Mustaqil fikrlash -insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir" Shunga ko'ra, so'nggi yillarda o'ziga xos dolzarblik kasb etayotgan mustaqil ta'lim asosida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, erkin-ijodiy ta'lim muhitini shakllantirishning zaruriy pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv va tarbiyaviy faoliyatni loyihalashtirishning integrallashgan pedagogik tizimini amaliyotga tatbiq etish orqali jarayon samaradorligini oshirish masalasi tadqiqotimizning eng muhim bosqichlaridan biridir. Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish boyicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bolib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyati tugiladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qollab-quvvatlaydi". Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, maktab sohasidagi islohotlar tashkil etadi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida va "Yoshlarga oid davlat siyosati" sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida ta'limni rivojlantirishga oid bir qator qonunlar qabul qilindi. 2020-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni asosida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 2021-yil davomida bolaning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini o'stirishga mo'ljallangan yangi darsliklar tayyorlash boshlandi.

Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi. Yosh avlodning



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Besh muhim tashabbus" ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari — "Prezident maktablari", "Temurbeklar maktabi", "Ijod maktablari" bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining talim sohasini isloh qilishdagi say harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, pedagogik mahorat, konikma, malaka va madaniyatga ega bolishlarini talab etmoqda. Bu esa oz-ozidan talim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini organuvchi pedagogika faniga "kreativlik" degan tushunchani olib kirdi. Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi. Ayniqsa, umum talim maktablarida oqituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bolgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi maqolamiz mavzusi dolzarbligining yana bir korinishi hisoblanadi. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi kreativ yondoshuvni talab etadi. Ayniqsa, boshlangich talim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi talim turidan biri bolib, talimning bu bosqichida pedagog oqituvchilarga katta masuliyat yuklatiladi. Yani boshlangich sinf oqituvchilarining kreativlik faoliyati hali maxsus organishni talab etmoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Jahon mamlakatlari kelajak kadrlarni tayorlashda talabalarni zamonaviy bilimlar bilan o'qitish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda qo'llash zamonaviy ta'limning asosiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarining



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



mohiyati. Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qoʻllanila boshlaganiga hali u qadar koʻp vaqt boʻlmadi. Biroq, oʻqitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga boʻlgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini taʼminladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni oʻqitish metodikasi, taʼlim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik gʻoyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, boʻlajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shartsharoitni yaratishga xizmat qiladi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi oʻz mohiyatiga koʻra jarayon tarzda namoyon boʻladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish gʻoyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha boʻlgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami oʻzgarishining oʻzaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlar hamda inson ontogengizi – tugʻilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bogʻliq. Maʼlumki, kasbiy tajriba bilim, koʻnikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat koʻnikmalarining oʻzlashtirilishi nafaqat amaliy koʻnikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor boʻlish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada oʻzlashtirilishi talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning oʻzaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning surʼati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bogʻliq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega boʻlishi taqozo etadi. Soʻnggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning taʼlim tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy eʼtibor qaratilmoqda.

Taʼlim tizimini boshqarish organlari har yili taʼlim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga eʼtibor qaratadi. Ana shu maqsadda oʻquv dasturini ishlab chiqiladi, yangi oʻquv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham oʻqituvchilarni kasbiy oʻsislariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olgʻa intilishga boʻlgan ehtiyojni muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning oʻquv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, oʻquv yilining oxirida kelib oliy taʼlim muassasalarida talabalarning fanlarni oʻzlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Koʻplab talabalarning taʼlim olishga nisbatan qiziqishi yoʻqolgan. Buning natijasida oʻqituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni oʻylashmayapti. Taʼlim tizimini boshqaruvchi organlar taʼlim olishga nisbatan xohish-istagi boʻlmagan talabalar, bu kabi taʼlim oluvchilarni oʻqitishni istamayotgan oʻqituvchilar faoliyatini



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



o'zgartirish borasida yangidan-yangi choratadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi talabalar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot- ta'lim muhitiga integrallashishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o'zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. AKT — bu turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga ishlov berish usullaridir. U birinchi navbatda, zarur dasturiy ta'minotga ega bo'lgan kompyuterlar va ma'lumotlar joylashtirilgan telekommunikatsiya vositalaridir. Hozirgi davr ta'lim bosqichining yangi talablariga ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bunda masofaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash va uni boshqarish ham muhim o'rin tutadi. Bu borada, Respublikamizda qator dolzarb ishlar olib borilmoqda. Yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan o'qitish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda qo'llash zamonaviy ta'limning asosiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tajribali pedagoglar o'qitish jarayonini isloh qilish yo'llarini idirishda davom etib quymasdan, pedagogik texnologiyalari yoki o'qitish texnologiyalarini yaratishga katta ahamiyat kasb qilmoqda. "Pedagogik texnologiya" termini o'tgan asrning 60-yillari boshlarida xorijiy davlatlarda paydo bo'lib, shu kungacha "Pedagogik texnologiya" bir nechta chet davlatlarda yan'iy, AQSH, Yaponiya va Angliya nufuzli jurnallarida va YUNESKO xalqaro tashkiloti ta'lim bo'yicha xalqaro byurosi byulletenida "Pedagogik texnologiya" seriyasida nashr qilinib kelmoqda. Axborotlar oqimining ortib borishi va ta'lim metodlarining murakkablashishi bilan ta'limni asosan an'anaviy usulda tashkil etish



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



tobora qiyinlashib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'quv jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim sohasi uchun nihoyatda keng imkoniyatlarni taqdim qiladi: differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi; teskari aloqa bog'lashi: o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi; darslarda animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanilishi; o'quvchilarga fanni o'zlashtirish uchun ko'nikmalar hosil qilishi va ularni barcha zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga barcha tomondan yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ta'limda kreativ fikrlash va zamonaviy axborot texnologiyalari foydalanishda kompyuter vositalari yordamida olib boriladigan dars an'anaviy darsdan o'quv jarayonini tashkil etish va unda ishlatiladigan metodlar bilan ham har tomonlama yordam beradi. O'qish jarayoni o'quvchining mustaqil bilim olishiga asoslanadi. Bu tamoyil o'qitish jarayonida ishtirok etuvchi sub'ektlarning munosabatini va o'qituvchining jarayondagi rolini aniqlaydi. Shuning uchun ham axborot texnologiyalari, kompyuter asosida darslarda qiziqish, o'zini- o'zi boshqarish, yangi bilimlarni o'zlashtirib borishga intilish dars oxirigacha saqlanib qoladi. Kreativ ta'lim texnologiyasida, kreativ ta'lim jarayonini samarasini oshirish uchun har xil metodlardan foydalanish kerak. Masalan, "Idrok xarita", "Atirgul", "T-sxemasi", "Zinama-zina", "FSMU", "Aqliy hujum", "Esse", "bayon, insho" yozish, "Blits sorov" kabi texnologiya va metodlar. Bunday darslarda o'quvchining bilim olish motivatsiyasi oshib boradi va har tomonlama mavzuni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axmedova, D.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2021.
2. Karimov, B.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
3. Xolboyeva, M.M. Ta'limda kreativ yondashuv asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
4. Qodirova, M.X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Samarqand: SamDU, 2021.
5. Ziyayev, A.R. Innovatsion ta'lim metodlari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. [www.wikipedia .uz](http://www.wikipedia.uz).
7. O'Yo'ldoshev .Umumiy pedagogika. Darslik.2023.-Toshkent.